

Neft-gaz sohasi samaradorligi va istiqbollari muhokama qilindi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 25-yanvar kuni "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatni tizimida geologiya-qidiruv va qazib olish ishlari samaradorligi, yoqilg'i materiallari bilan ichki ehtiyojni ta'minlashning ahvoli, tizimdagagi istiqbolli vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, neft-gaz sanoati sohasida ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Neft-gaz sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatni faoliyati takomillashtirildi.

Uglevodorod xomashyosini qazib olishni ko'paytirishning 2021-yilgacha bo'lgan dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari tasdiqlandi.

Mamlakatimizda yer osti boyliklari ko'p. Ularni o'zlashtirish va qayta ishslash bo'yicha yangi tizim yaratildi. Xo'sh, yurtimiz boyliklari xalqimizga qanday manfaat keltirmoqda, dedi davlatimiz rahbari.

2017-yilda neft va gaz kondensati qazish, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan reja bajarilgan. Lekin tarmoqda yillar davomida ko'plab muammolar to'planib qolgan.

Zaxiralar oshirib borilmagani sababli 2017-yilda tabiiy gaz qazish va neft mahsulotlari ishlab chiqarish prognozi yetarli darajada bajarilmagan. Geologiya-qidiruv jarayonidagi burg'ilash hajmi bo'yicha prognoz 77 foizga bajarilgan. Agar bu ishlarni to'liq ado etilganida zaxirani yanada oshirish mumkin bo'lar edi.

Shuningdek, ekspluatatsion burg'ilash ishlari prognozi 49 foizga va qurilishi tugatilgan quduqlar soni prognozi 53 foizga bajarilgan, xolos.

Tabiiy gaz qazish quvvatlari hamda tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ta'mirlash ishlari ham yetarli darajada emas. Buning oqibatida gaz qazib olishdan boshlab, uni iste'molchiga yetkazib berguncha ushbu tabiiy boylikning 6 foizi yo'qotilmoqda.

Prezidentimiz shu kabi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilar ekan, uglevodorod zaxiralarini

oshirish va qazib chiqarishni ko'paytirish borasidagi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Geologiya-qidiruv ishlari davlat dasturiga muvofiq, yangi konlar ochish orqali 2018-yilda tabiiy gaz zaxirasini 57 milliard kub metrga, neft va kondensat zaxirasini 3,6 million tonnaga ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi.

Joriy yilda 63 milliard kub metr tabiiy gaz, 3 million tonna neft va kondensat qazib olishni ta'minlash uchun 255 ta yangi quduq va 26 ta yangi texnologik obyektni qurish ishlарini yakunlash, 76 ta quduqni kapital ta'mirdan chiqarish lozimligi qayd etildi.

"O'zbekneftgaz" AJ tomonidan 2 milliard 756 million dollarlik 24 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu mablag'lar Jizzax neftni qayta ishslash zavodini buniyod etish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, Qandim gazni qayta ishslash kompleksining 2-navbatli va Qandim konlar guruhini jihozlash, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish, Surxondaryodagi "Mustaqillikning 25 yilligi" konida qidiruv ishlарini olib borish va texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish kabi loyihalarga yo'naltiriladi. Mazkur 24 yirik loyihaning 9 tasi bu yil amalga oshiriladi.

Yig'ilishda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalarning yarmidan ko'pi neft-gaz sohasi hissasiga to'g'ri kelishi, sarflangan har bir dollar iqtisodiy foyda keltirishi zarurligi ta'kidlandi.

Davlat manfaatlari nuqtai nazaridan, mahsulot taqsimlash kelishuvlari va qo'shma korxonalar shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Sohaning logistika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, xomashyo importi va mahsulot eksporti narxlarining arzonroq bo'lishini kafolatlaydigan transport yo'laklari va tariflarini aniqlash, energiya iste'molini tejash va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Gaz taqsimlash tizimi jismonan eskirgani va iste'molchilarga tabiiy gaz yetkazib berishda yo'qotishlarga yo'l qo'yilayotgani tanqid qilindi. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yuqori va o'rta bosimli gaz taqsimot tizimini rivojlantirish, avtotransportlarni gazga o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, iste'molchilarning energiya resurslaridan samarali foydalanish madaniyatini oshirish muhimligi qayd etildi.

Neft-gaz sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatining kredit reytingini aniqlash ishlарini jadallashtirish bo'yicha ham vazifalar belgilandi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha zarur hujjatlar qabul qilish va belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

